
Rishtonda yana bir maktab ko'rkam qiyofa kasb etmoqda

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz

Joriy yilda Rishton tumanidagi "Obod qishloq" dasturiga kiritilgan "Oq yer" mahallasidagi 15-umumta'lim maktabida mukammal ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Qurilish ishlari Farg'ona viloyati hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati injinering kompaniyasi "Iqboljon G'offorov" xususiy korxonasi ishchi xodimlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Qurilish uchun 2.579.855.000 so'm ajratilgan. Bugungi kunda maktabdagi ta'mirlash ishlarining 75 foizi bajarildi. Ajratilgan milliardlab mablag'larning o'z o'rnida sarf etilishi, qurilish ishlarining sifatli amalga oshirilishi, aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish bo'yicha tuman hokimi va mutasaddi tashkilotlar rahbarlari va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida doimiy nazorat olib borilayotganini ta'kidlash joiz.

Negaki, ushbu qurilish ishlarining sifatli amalga oshirilishi, ta'lim muassasasida muammolarsiz kuz-qish mavsumlarini o'tkazish, binoning uzoq yillar davomida kelajak avlodga xizmat qilishi bevosita ana shunga bog'liq. Ta'kidlash joizki, maktabdagi ta'mirlash ishlari qisqa fursatlarda yakunlanadi.

Rishton tumani hokimligi axborot xizmati

2022-08-15 06:40:12